

THE TRAGEDY OF FREEDOM

Nurmuradova Farogat Termez State University

Master's Degree Literary Studies: Uzbek

1st year master's degree in literature

Buriyev Jamshid Termez State University

Master's degree in Linguistics, Uzbek language

2-course master's degree

"The heart is free, the world does not need money ..."

Annotation: In the article "Tragedy of a free heart" dedicated to the works of Hayriddin Sultan, the author's story "The heart is free" is analyzed in detail. It describes the events and thoughts of a young researcher named Gulomjon. It is no secret that the issue of educating young people is one of the most painful and urgent issues in our society, and this play sheds light on the tragedy that occurred as a result of that immorality and neglect. In the process of analysis, special attention is paid to the artistic style and language of the creator.

Keywords: Hero, Hayriddin Sultan, story, style, language of fiction, proverb.

OZODA KO'NGIL FOJEASI

Nurmurodova Farog'at Termiz davlat universiteti

Magistratura bo'limi Adabiyotshunoslik:o'zbek

adabiyoti yo'naliши 1-kurs magistrant

Bo'riyev Jamshid Termiz davlat universiteti

Magistratura Lingvistika o'zbek tili yo'naliши

2-kurs magistrant

"Ko'ngil ozodadur, dunyog'a arzi ehtiyoj etmaz..."

Annotatsiya: Xayriddin Sultonning ijodiga bag'ishlangan "Ozoda ko'ngil fojeasi" maqolasida adibning "Ko'ngil ozodadur" qissasi atroficha tahlil qilinadi. Unda G'ulomjon ismli yosh izlanuvchi atrofida kechayotgan voqealar, o'y-xayollar tasvirlanadi. Sir emaski yoshlari tarbiyasi masalasi jamiyatimizning eng og'riqli, dolzarb masalasi bo'lib kelyapti va bu asarda o'sha axloqsizlik, e'tiborsizlik natijasida yuz bergen fojea yoritiladi. Tahlil jarayonida asosan ijodkorning badiiy uslubi va tiliga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Qahramon, Xayriddin Sulton, qissa, uslub, badiiy asar tili, maqol

Bugungi o'zbek nasrida o'ziga xos uslub, o'ziga xos yo'naliш bilan borayotgan iste'dodli yozuvchilardan biri bu Xayriddin Sultondir. Xayriddin Sulton ijodi 70-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan. Hikoyalari bilan adabiyotga dadil kirib kelgan X.Sulton, avvalo, o'zi ko'rgan-bilgan hayotni tasvirladi. Dastlabki asarlaridayoq ko'pchilik e'tibor bermaydigan, ammo azaliy-abadiy muammolarni mavzu qilib olgan adib oddiy voqe-hodisalar zamiridagi nozik jihatlarni ilqab, ularga muhim badiiy ma'no-mohiyat yukladi. Milliy ma'naviyatga daxldor, xalqning o'limas udum va an'analariga oid muammolar hech qachon dolzarbligini yo'qotmasligini o'ziga xos ta'sirchan yo'sinda ifodalab berdi.

Adibning qahramon tanlash borasidagi izlanishlari, ayniqsa, e'tiborga sazovor. Uning asarlarida turli toifaga mansub kishilar obrazini ko'rish mumkin: hayotga endigina qadam qo'ygan yosh yigit-qizlar, bolalar, umri poyoniga yetayotgan chollar, qariyalar, xokisor, goho ju'ratsiz va kamsuqum insonlar. Ammo kim bo'lishidan qat'iy nazar, yozuvchi ularning qalbiga kirib borish va ularning ma'naviy olamini kashf etishni asosiy maqsad qilib oladi. Bir qarashda oddiygina, miskin, mahzun bo'lib ko'ringan insonlar qalbida ham ulkan ruhiy g'alayonlar, o'tkir dramatik jarayonlar kechishi mumkinligini ifodalab, bularning sababi, ma'no-mohiyati haqida kitobxonni mulohaza yuritishga undaydi. Shuningdek, yozuvchi hikoyalarda tabiatan sokin, ammo

sermullohalazaliligi, odob-andishasi bilan ajralib turadigan qahramon obrazi ko'p uchraydi. Buni Xayriddin Sultonning ko'pincha qahramonlaridagi ijobiy sifatlarni korsatishga moyilligi bilan izohlash mumkin. Yozuvchi qahramonlari hayotiyligi, milliyligi, tabiiyligi bilan ajralib turadi.

X.Sulton xarakter yaratishda milliy ruhga, odamiylikka tayanib ish ko'radi. Asarda salbiy o'ren tutgan qahramonlarga munosabatda ham odatdagidek qora chaplash yo'lidan bormay, ularga insof, insoniy shafqat yuzasidan yondashadi. Xarakter tasvirida serso'z, batafsil bayondan qochadi, eng muhim bir-ikki detal yoki bo'yoq-chizgi bilanoq qahramonni ko'z o'ngingizda gavdalantirib qoyadi. Xayriddin Sulton garchi an'anaviy yo'lda ijod qiluvchi adiblardan sanalsa-da, har bir asarida yangicha kompozitsiya unsurlarini ko'ramiz. Dunyo adabiyotining ilg'or namunalaridan yaxshi xabardor adib bu usullarni ko'r-ko'rona, «shakl-shakl uchun» qabilida emas, balki asarning milliy ruhiga, undan ko'zlangan maqsad-muddao hamda tasvir ohangiga mos ravishda qo'llaydiki, uzukka ko'z qo'ygandek munosib, bejirim chiqadi, natijada asar kompozitsiyasidagi yangiliklar goho sezilmay ham qoladi, shu qadar uyg'un! Adibning deyarli barcha hikoyalari, qissalari syujeti hayotiy asosga ega; u asosan o'zi ko'rgan-bilgan voqelikni qalamga oladi. Ammo bunda voqealar tafsilotidan ko'ra ichki kechinmalar tasviri, tahlili mulohazalar yetakchilik qilishi muhim.

"Ustoz adib Xayriddin Sulton asarlarining jozibador tili va uslubi, xalq maqollari hamda matallariga boy bitiklari o'quvchi qalbini ma'nан boyitibgina qolmasdan, unga hayot sirlaridan saboq bergenini his etasiz"¹. Xayriddin Sulton "Ko'ngul ozodadur" qissasi boshqa qissalardan birmuncha farq qiladi yozilish uslubi jihatidan ham, ma'no-mazmun jihatidan ham. Qissada ozoda ko'ngil egasi bo'lgan G'ulom Muhammad Sharif Gulxaniy bilan hayolan birga yashaydi, suhbatlashadi, dardini yoradi lekin uni faqat qalb ko'zi bilan ko'rmoq, dil qulog'i bilan eshitmoq mumkin. Asar Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridagi insondek yashovchi, suhbatlashuvchi qushlarga teskari o'laroq hayvondek yashovchi insonlar tubanliklari ham namoyon etilgan. Dastlab asar boshlanishi bir maromda, bir tekis boshlansa ham asar o'rtalariga kelib Shodiyor kvartirasiga ko'chib kelishi bilan asar voqealarini rivojlanib ketadi. Asar Guxaniyning hikoyatlari, maqollari, baytlari bilan o'zgacha ma'no, joziba baxsh etgan. Har bir maqol, hikoyat asar voealariga mos ravishda topib qo'llangan. Asardagi qahramonlar xarakteri bir-biriga o'xshamaydi, bir-birini takrorlamaydi va yozuvchi xarakterni ochishda asosan oddiy maqollardan, detallardan foydalanadi. "Hayotni tipiklashtirishda, uni badiiy ifodalashda, qahramon xarakteri qirralarini ochishda, asar g'oyasini ifodalashda, uning emotsiyal ta'sir kuchini oshirishda badiiy detallar katta rol o'ynaydi"². Misol uchun G'ulom Gulxaniyning Yodgor po'stindo'z haqidagi hikoyatini aytganda hamkasbi Jaloliddinni eslashi uning xarakterini ochib bergen ya'ni Jaloliddin ham Yodgor po'stindo'zdek yolg'onchi inson ekanligi anglashiladi. Qahramon aytganidek "Mavlono Gulxaniy zikr etmish har bir maqol ortidan bir taqdir darichasi yaqqol ko'rinish turadi". "Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyilmas" - tabiatan bosiq bo'lgan G'ulomga berilgan ta'rif. "Haromzodaning quyrug'i bir tutam" - bu endi quyrug'in yashirib yurgan Jaloliddingga tegishli. "Quruq qoshiq og'iz yirtar" maqoli orqali esa qishloqda sakkiz jonni zo'rg'a boqayotgan qahramonning otasiga qarata aytilgan maqol edi. "Tor joyda osh yegandan keng joyda musht yegan afzal", "Aslni xatosi bo'lmas, nokasni atosi", "Ishongan tog'da kiyik yotmas", "Chaynamayin yeganlar og'rimayin ketarlar", "Erga bersang oshingni- erlar silar boshingni, itga bersang oshingni- itlar tortar boshingni", "So'zni aytgil uqqong'a, jonni jong'a suqqong'a, aytib netarsan onadin bemahal tuqqong'a..." kabi hikmatlar ham bevosita asar qahramonlariga qaratilgan edi. Asar maqollar-u hikmatli so'zlarga boy bo'lishi bilan birga betakror o'xshatishlar ham qo'llangan. Quyidagi parchaga e'tibor qaratsak: " Ko'k yomg'iri ustimizga yomadi, ko'z yoshimiz- yerga, yer loy bo'ladi- ahvolimiz voy, paytava quriydi- sho'rimiz ham, quyosh mo'ltiliraydi- biz ham mo'lyiraymiz, makaron sho'rva qaynaydi- jig'ildon qaynaydi, maymunlar yig'laydi - biz yig'lamaymiz." Asar tili ham birmuncha o'zgaruvchan. " Turkning o'n chaqirim narida tomorqasi bor, poyoni yo'q, tomorqasida yeryong'oq bor, qazib olgani vaqt yo'q, biroq uyida hasharchi bor, hasharchining tili yo'q, biroq dili, dilida jur'ati yo'q, ammo alami bor, oyning issig'i, yolg'iz shu'lesi bor, ishsevarga tun-u kunning farqi yo'q, ish bor, ish bor, faqat ish bor!" jumlalaridagi zid ma'noli, paronim so'zlarni qo'llashi Tog'ay Murod, Erkin Azam tili va uslubini yodga solsa, " Umidim ul ediki, zora dunyo ni qo'tirni unutsam, sohibi farosat va xushchaqchaq qushlar suhbatiga qulqoq tutib, gavhar-u marvaridlarga bergisiz hikmat ma'nilarini tersam..." jumlalari esa o'rta asrlar tiliga monand.

Asardagi sof muhabbat tasviri ham juda go'zal ifodalangan. G'ulomning Gulxaniya sevgi qissasini " Uni ilk dafa uchratganimning o'ziyoq g'aroyib bir masalga o'xshardi. So'ngi bor uchratganim esa chin marsiya bo'ldi" -

¹. Yo'lshoq Eshbek. Odamlardan tinglab hikoya. -T: Hilol". 2019. B 5

². T.Boboev. Adabiyotshunoslik asoslari. -T: "O'zbekiston". 2002. B 74

deya boshlashidan ham qahramon sevgisiga yetolmaganligi, undan ayrilganligi, armon bo'lib qolganligini yaqqol sezish mumkin. G'ulom "Uning ismi Qunduz edi. Ismi Qunduz edi-yu lekin o'zi yulduz edi. Mening qo'lim yetmagan yulduz. Toleim osmonida bir chaqnab so'ngan yulduz..." deya eslaydi. Afsuski, asardagi muhabbat gulini payhon qilgan Qunduzning "gunoh"³"i sirliligicha qoladi. "Birinchi muhabbat tip-tiniq bahor osmonidagi bulutga o'xshaydi. Pokiza, shaffof... Shamol qayoqqa olib ketishini o'zi ham bilmaydi". G'ulomning ham muhabbatini bulut singari shamol emas balki dovullar olib ketdi ammo yuragida abadiy qoladi. "Insoniyatga xos bo'lgan barcha fazilat-u qusurlar adabiy mavzulardir"⁴. Ushbu qusurlarga yolg'onchilik, xiyonat, poraxo'rlik, zino ham kiradi. Bu qissani ham adabiy asarlar sirasiga kirita olamiz. Qissaning chuqur mazmuni inson kechinmalarini tushuna oladigan, his-tuyg'uga begona bo'limgan kitobxonni o'yga toldirmay q'oymaydi.

Foydalilanlgan adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. 2-jild. Toshkent: Fan, 1979. 445 b.
2. Sultonov X. Quyosh barchaga barobar. Hikoyalar. Toshkent: Adabiyot va sanat nashriyoti, 1980. 54 b.
3. Sultonov X. Bir oqshom ertagi. Hikoyalar, tarixiy etyudlar, qissa. Toshkent: Adabiyot va sanat nashriyoti, 1983. 205 b.
4. Sultonov X. Onamning yurti. Qissa va hikoyalar. Toshkent: Adabiyot va sanat nashriyoti, 1987. 256 b.

³. O'tkir Hoshimov. Shamol esaveradi. -T: "Ziyo nashr".2020. B 120

⁴. Умurov X. "Адабиёт коидалари", Т.: "Ўқитувчи" -2013-й. 72-б.